

JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHILARI VA ULARNING TARIXIY TAFAKKURI

Minosidinov Sherzod Baxromjonovich,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotasiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining asoschilari hamda ularning g‘oyalari haqida so‘z boradi. Jadidlar milliy birlik, ma’naviy-ma’rifiy isloxoxtolar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo’llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida qayd etilgan fikrlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jadid, ma’rifat, usuli jadid, milliy ko’tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g‘oya.

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloq qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jaded so'zi (arabcha "jadid" – yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdarlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.

Ijtimoiy uyqudan uyg‘onish, milliy uyg‘onish tarixiy zaruriyat bo‘lib qoldi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlanishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob tariqasida obektiv ravishda maydonga keldi.

Ta’kidlash joizki, Turkistonda jadidchilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yetilgan edi. Ayniqsa, o‘lkada millatning dard alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali, og‘ir qismatini o‘z qalbi va vujudidan o‘tkazib, o‘zining butun borlig‘ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk ozodlik taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyorilarning butun bir yangi avlod shakllangan edi. Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g‘oya va harakatlarning ham ta’siri kuchli bo‘ldi.

Jadidchilik harakatining asoschilari o‘z davri uchun yangicha tafakkur yarata olishdi. Bunda ochilgan yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar o‘tish bilan bir qatorda yosh avlod ongiga milliy g‘oya tuyg‘usini singdirishdi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o‘rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari o‘zlarini taraqqiyatparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyatparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyorilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini va ilm borasida yosh avlodni o‘ylagan holda

jamiyatni tubdan isloh qilish zaruriyatini tushundilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Keyinchalik Turkiston hududiga keng yoyilishi orqali ko'plab jadidchilarimiz yetishib chiqdi. Jumladan, jadidchilik otasi deya ta'riflangan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'javev va boshqalar.

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1871-1919)dir. U tarixda "Turkiston jadidlarining otasi" deb nom olgan. Mahmudxo'ja Behbudiy istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida brogan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo'jayev Behbudiy haqida bunday degandi: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak» [3, 36].

Marhum sharqshunos olim Laziz Azizzoda «Behbudiyning sobiq Turkiston o'lkasining ijtimoiy, madaniy va adabiy rivojidagi o'rni, roli va ahamiyatiga juda katta baho berib, uni hatto fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo, rus inqilobchi demokratlari N.G. Chernishevskiy, Dobrolyubovlar, tatar va ozarbayjon ma'rifatparvarlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Mirza Fatxali Oxundov, Naxafbek Vazirovlar bilan qiyoslagan. O'zbekistonda Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk zotlar bilan birga Behbudiya ham haykal o'rnatish kerak» [3, 36], - deb, yozgan edi. Jadidlar tafakkuri xalqni ma'rifatli qilish, madaniyatni yuksaltirishning o'zi yetarli emasligini, xalqni o'z kuchiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligini yaxshi tushunishardi. Ularning ma'rifatparvarlik faoliyati sof ma'rifat doirasida chiqib, zulmga va inson qadr-qimmatini kamsitishga qarshi faol kurash olib bordilar. Ular demokratik o'zgarishlar uchun kurashda boshladi va mamlakatda liberal-demokratik harakat asoschilariga aylandilar. Jadidlar mafkurasi milliy g'oya xalqni birlashtiruvchi asosiy kuchdir. U milliy g'ayrat-shijoatni va o'z mamlakatiga muhabbatni alanga oldiradigan uchqundir. Milliy birlik g'oyasi xalq ongida qaror topdi, hamda umummiliy manfaatlarga bo'ysundirish va ularni ro'yobga chiqarish uchun kurashish zarurligi to'g'risidagi tushunchani uyg'otdi.

Jasidlarimizning tarixiy tafakkuri ozodlik, tenglik adolat, ilmga bo'lgan chanqoqlik yotardi. Jadidlar o'zbek xalqi uchun o'z ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy asoslariiga ega bo'lgan yangi o'zbek davlatini barpo etishda yo'l ochib beruvchi milliy g'oyani shakllantirdilar. Jadidlar o'zbek xalqi ijtimoiy tafakkurida qaror topgan ko'p asrlik insonparvarlik, erksevarlik va adolat g'oyalaring ulug' davomchilari edi. Har jamiyatning ustuni avvalo ilm hisoblanadi. Bu borada jadidlar maktabi va g'oyalari katta ahamiyatga egadir. Jadidlar har taraflama o'zlarining ongi va tafakkurini ishga solgan holda Turkiston yoshlarini ilmi qilish orqali ularga o'zligini qaytarish yurtni ozod ko'rishni orzu qilgan holda dadil qadam tashlashgan. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlarining turkiy xalqlar birlashuviga oid g'oyasi yangi bo'lmay u o'lka chegaralaridan tashqariga ham yoyilgan edi. Bizningcha, bunda Rossiya, jumladan tatar jadidchiligining ta'siri chunki aynan jadidchilik ildizlari shu yerdan chiqqaligi uchun kuchli edi. O'z navbatida, Turkistondagi milliy harakatga Sharqda yuz bergen ijtimoiy-siyosiy jarayonlar - Erondagi konstitutsiyaviy harakat (1905-1911), Hindistondagi mustamlakachilikka qarshi chiqishlar (1905-1908),

Turkiya inqilobi kabi voqealar muayyan ta'sir ko'rsatgan. Lekin turkistonlik jadidlar bu g'oyalarni mexanik ravishda qabul qilmagan. Balki milliy turmush tarzimizga muvofiq ayrim ijobiy tomonlarinigina o'zlashtirgan. O'z navbatida, aytish kerakki, ular hech qachon umumturkiy yoki umumislomiy davlat qurishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yagan. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan birlashish shiori ma'naviy-axloqiy xarakterga ega bo'lib, chor mustabid hokimiyatiga qarshi yo'naltirilgan va mustamlakachilikka qarshi kurash mazmunida bo'lgan. Turkistondagi Milliy Uyg'onish – jadidlar Renessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o'z asarlarida bunga amal qilmoqdalar. Shu o'rinda yapon olimi Xisa Komatsu o'zining «Chig'atoy gurunchi»da «Turk dunyosini uyg'otish yo'lida jon tikkak adiblar» iborasini ishlatalishi va nemis olimasi Ingobarg ham Turkiston uyg'onishi haqidagi yozganini eslash kifoyadir. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov jadidlar Uyg'onish davriga asos solganligini e'tirof etgan holda shunday deydi: «XX asr boshida, mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi ufqlarga – milliy va erkinlik sari intilib yashashgan bir davrda buyuk ajdodlarimiz – jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o'ziga xos ma'naviy jasorat na'munasi, deb atash mumkin». Haqiqatan ham jadidlar yuqorida ko'rsatib o'tilganligi va musulmon mutaassibligi kuchli bo'lishiga qaramay jamiyatda tub madaniy – taraqqiy burilishi yasashga muvaffaq bo'ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o'zgardi, millat ijtimoiy g'aflat uyqusidan uyg'onib siyosiy va ma'rifiylashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma'rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo'ldi. Bularning samarasi ila butunlay yangi, ya'ni jadid madaniyati rivoj topdi. Bu madaniyat hozirgi zamонави замонавитимизнинг poydevor toshi bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamонави замонавитимизнинг dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamонави замонавитимизнинг bilimdon, mutaxasislari, madaniyatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lганларлари учун mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinlik, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumatimustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lida yoshlar asosiy kuch bo'lганларини тушуниб, ularning on-saviyasini oshirish учун ko'p sa'y-harakatlar qilganlar.

Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rinnegallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov Begali. Milliy uygonish – T: Ma'naviyat. 2002.
2. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari.
3. Aлиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. –Т.: Ёзувчи, 1994.
4. Аъзамхўжаев С. Туркистон муҳторияти. – Т.: Маънавият, 2000.